



Improving English language teaching in preschool educational institutions using the Inquiry Based Learning method (based on the Chinese experience)

Nilufar KADIROVA¹

Andijan State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2025

Received in revised form 5

September 2025

Accepted 10 October 2025

Available online 25 October

2025

Keywords:

Inquiry-Based Learning,
preschool education,
English language instruction,
Chinese experience,
exploratory learning,
communicative competence,
interactive pedagogy.

ABSTRACT

This article examines the theoretical and practical aspects of enhancing the English language teaching process in preschool educational institutions using the Inquiry Based Learning (IBL) method. The experience of implementing this method in the Chinese preschool education system is analyzed, and the possibilities of adapting it to the Uzbek context are explored. The study demonstrates the effectiveness of the IBL method in developing children's skills in independent research, questioning, experimentation, and communication. Additionally, the article presents the necessary pedagogical conditions, resources, and methodological recommendations for implementing this method.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss9/S-pp167-171>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

MTTlarda ingliz tili o'qitishni Inquiry Based Learning metodi asosida takomillashtirish (Xitoy tajribasi misolida)

АННОТАЦИЯ

Калит сўзлар:

Inquiry Based Learning,
maktabgacha ta'lim,
ingliz tili o'qitish,
Xitoy tajribasi,
izlanish faoliyati,
kompetensiya,
interaktiv metodlar.

Ushbu maqolada MTTlarda ingliz tili o'qitish jarayonini Inquiry Based Learning (IBL) metodi asosida takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganiladi. Xitoy maktabgacha ta'lim tizimida mazkur metodning qo'llanish tajribasi tahlil qilinib, uni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqot bolalarda mustaqil izlanish, savol berish, tajriba qilish va muloqotga kirishish ko'nikmalarini rivojlantirishda IBL metodining samaradorligini asoslab beradi.

¹ Andijan State Institute of Foreign Languages.

Shuningdek, metodni joriy etish uchun pedagogik sharoitlar, resurslar va metodik tavsiyalar taqdim etilgan.

Совершенствование преподавания английского языка в ДОУ на основе метода Inquiry Based Learning (на примере опыта Китая)

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Inquiry Based Learning, дошкольное образование, обучение английскому языку, китайский опыт, исследовательская деятельность, коммуникативная компетентность, интерактивные методы.

В данной статье рассмотрены теоретические и практические аспекты совершенствования преподавания английского языка в дошкольных учреждениях на основе технологии Inquiry Based Learning (обучение через исследование). Анализируется опыт применения данного метода в системе дошкольного образования Китая и оцениваются возможности его адаптации к условиям Узбекистана. Исследование показывает, что IBL способствует развитию у детей навыков самостоятельного поиска, экспериментирования, коммуникации и решения проблемных ситуаций. Кроме того, представлены педагогические условия, необходимые ресурсы и методические рекомендации по внедрению метода в процесс обучения английскому языку дошкольников.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida chet tillarini, ayniqsa ingliz tilini erta yoshdan boshlab o'qitish masalasi maktabgacha ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Zamonaviy ta'lim jarayoni bolalarning faolligiga, mustaqil fikrlashiga, muloqotga kirishish malakasiga va ijodkorligiga asoslangan sharoitlarni yaratishni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, an'anaviy reproduktiv uslublar o'rnini asta-sekin kompetensiyaga yo'naltirilgan interaktiv metodlar egallamoqda. Shulardan biri sifatida Inquiry Based Learning (IBL) — izlanishga asoslangan ta'lim yondashuvi oxirgi yillarda jadal rivojlanib, dunyoning yetakchi maktabgacha ta'lim tizimlarida keng qo'llanilmoqda. IBL metodida bola tayyor bilimlarni qabul qiluvchi emas, balki faol izlanish ishtirokchisi sifatida qaraladi. Bu yondashuvda turli savollar berish, kuzatish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, tajribalar o'tkazish, kichik guruhlarda ishlash va xulosa chiqarish jarayonlari asosiy o'rinni egallaydi. Natijada bolalarda tilni o'rganishga nisbatan tabiiy qiziqish shakllanadi, lingvistik birliklarni anglash va real kommunikativ vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalari mustahkamlanadi. Ayniqsa ingliz tilini o'rgatishda obyektlarga tegish, ko'rish, tinglash, solishtirish kabi amaliy faoliyatlar orqali til materialining o'zlashtirilishi samarali bo'ladi. Xitoy maktabgacha ta'lim tizimi IBL metodini joriy etish bo'yicha so'nggi yillarda sezilarli tajriba to'pladi. Ushbu mamlakatda bolalarni izlanish faoliyatiga jalb etish, ularga erkin tanlov berish, eksperimentlar tashkil etish, ko'p sezgili o'quv muhiti yaratish orqali ingliz tili ta'limining sifati yaxshilangan. Xitoy amaliyotida IBL metodining o'quvchilar nutq faolligi, so'z boyligi, muloqot qobiliyati hamda fikrlash jarayonlarini rivojlantirishdagi samaradorligi ilmiy tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida ham so'nggi yillarda xorij tajribasini o'rganish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish,

bolalarning kompetensiyasiga yo'naltirilgan dars jarayonlarini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bois IBL metodini ingliz tili mashg'ulotlariga joriy qilish mazkur jarayonni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi. Metod bola faoliyatini markazga qo'yganligi, tabiiy izlanishga undashi, kattalar ko'magisiz ham mustaqil bilim hosil qilish imkonini berishi bilan MTTLar uchun nihoyatda mos keladi. Mazkur maqolada IBL metodining nazariy asoslari, Xitoyda qo'llanilish tajribasi, uning afzalliklari va cheklovlari, shuningdek, O'zbekiston sharoitida metodni samarali tatbiq etish uchun zarur bo'lgan pedagogik sharoitlar keng yoritiladi. Tadqiqotning dolzarbligi metodning zamonaviy maktabgacha ta'limning asosiy maqsadlari — bolalarning faol ishtiroki, muloqot ko'nikmalari, ijodkorligi va mustaqil o'rganishiga mos kelishi bilan belgilanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo'llash bo'yicha ilmiy manbalar oxirgi yillarda sezilarli darajada kengaydi. Xalqaro adabiyotlarda Inquiry Based Learning (IBL) metodining nazariy asoslari Dewey (1938), Bruner (1961), Piaget (1972) kabi tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular bolaning bilish jarayoni faol izlanish va tajriba orqali shakllanishini ta'kidlaydi. Ushbu g'oyalar keyinchalik Kolbning tajribaviy o'qitish modeli, Vygotskiyning ijtimoiy-kognitiv nazariyasi va konstruktivizm tamoyillari bilan boyitilgan. XXI asrda IBL metodining amaliy jihatlari Barrett, Pedaste, Hmelo-Silver, Linn, Krajcik kabi olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Ularning tadqiqotlarida izlanishga asoslangan o'qitish bolalarda savol berish, tahlil qilish, bog'liqliklarni aniqlash, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish kabilarni shakllantirishini ko'rsatadi. Ingliz tilini o'rgatish bo'yicha P. Lightbown va N. Spada tadqiqotlarida esa tilni amaliy faoliyat orqali o'zlashtirish, tilga tabiiy ehtiyojni shakllantirish va multimodal muhit yaratish metod samaradorligini oshirishi qayd etilgan. Xitoy ta'lim tizimiga oid adabiyotlar (Li & Chen, 2019; Wang, 2020; Zhang, 2021) MTTLarda IBL metodining keng qo'llanilishi, ayniqsa ingliz tili mashg'ulotlarida bolalarning nutq faolligini oshirishdagi ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi. Xitoy olimlari ta'kidlaganidek, mazkur metodni qo'llash jarayonida ko'p sezgili muhit yaratish, tajribalar tashkil etish va guruhli faoliyatni uyg'unlashtirish katta ahamiyatga ega.

O'zbekiston olimlari — A. Xoliqov, M. Qodirova, D. Tursunova, Sh. Jo'raeva va boshqalar — maktabgacha ta'limda innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish, kompetensiyaga yo'naltirilgan o'qitish, interfaol metodlarning samaradorligini o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. Ammo IBL metodini aynan ingliz tili mashg'ulotlariga qaratilgan holda, Xitoy tajribasi bilan taqqoslab o'rganish bo'yicha tadqiqotlar hali yetarli darajada shakllanmagan. Shu bois ushbu yo'nalish bo'yicha qo'shimcha ilmiy izlanishlar o'tkazish zarur.

Tadqiqotning metodologik asosini konstruktiv yondashuv, izlanish faoliyati nazariyasi, bolalarning erta rivojlanish psixologiyasi va interfaol o'qitish texnologiyalari tashkil etadi. Metodologiya quyidagi tamoyillar asosida ishlab chiqildi:

1. Konstruktivizm tamoyili

Bolalar bilimni tayyor shaklda qabul qilmaydi, balki faol tajriba, kuzatish va izlanish jarayonida mustaqil ravishda quradi. Shu bois mashg'ulotlar bolani faol ishtirokchi sifatida jalb qiladigan topshiriqlar asosida tuzildi.

2. Inquiry based learning yondashuvi

Tadqiqot IBL metodining quyidagi bosqichlari asosida tashkil etildi:

- Savol berish (Questioning) – bolalarda qiziqish uyg'otish va muammoli vaziyat yaratish.
- Kuzatish va izlanish (Exploration) – obyektlar bilan amaliy tajriba o'tkazish.
- Tahlil qilish (Investigation) – topilgan ma'lumotlarni solishtirish, farqlarni aniqlash.
- Xulosa chiqarish (Conclusion) – umumlashtirish, yangi bilim hosil qilish.
- Amaliy qo'llash (Application) – o'rganilgan til birliklarini real muloqot vaziyatida qo'llash.

3. Xitoy tajribasini o'rganish metodlari

Xitoy MTTlarida ingliz tili o'qitishning amaliy jarayonlari quyidagi metodlar orqali tahlil qilindi:

- xorijiy ilmiy manbalarni kontent-tahlil qilish;
- Xitoy ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan metodik qo'llanmalarni o'rganish;
- amaliy tajriba tasvirlari, videodarslar va kuzatuv materiallarini tahlil qilish.

4. Empirik metodlar

Tadqiqot davomida O'zbekiston MTTlarida quyidagi amaliy metodlar qo'llandi:

- kuzatuv – ingliz tili mashg'ulotlarini real jarayonda tahlil qilish;
- suhbat – tarbiyachilar va ingliz tili o'qituvchilarining fikrlarini o'rganish;
- diagnostik topshiriqlar – bolalarning til bo'yicha dastlabki bilim darajasini baholash;
- eksperiment – IBL asosidagi namunaviy mashg'ulotlarni sinovdan o'tkazish.

5. Statistik tahlil

Olingan ma'lumotlar sifat va miqdoriy ko'rsatkichlar asosida qayta ishlanib, taqqoslovchi jadval va xulosalar orqali umumlashtirildi. Metodologiya tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlash uchun barcha bosqichlar bo'yicha tizimli yondashuvni o'z ichiga oldi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Tadqiqot davomida Inquiry Based Learning (IBL) metodining MTTlarda ingliz tili o'qitish jarayoniga ijobiy ta'siri kuzatildi. Sinov mashg'ulotlari shuni ko'rsatdiki, bolalarda savol berish faolligi, so'z boyligi, oddiy gap tuzish va muloqotga kirishish ko'nikmalari sezilarli darajada oshdi. Amaliy izlanishlar asosida tashkil etilgan topshiriqlar bolalarning nutqiy faolligini kuchaytirib, yangi inglizcha so'zlarni tabiiy ravishda o'zlashtirishga yordam berdi. Shuningdek, guruhli ishlash, tajriba o'tkazish va kuzatish jarayonlari bolalarning mustaqil fikrlash va xulosa chiqarish malakalarini rivojlantirdi. Xitoy tajribasini tahlil qilish orqali IBL metodining samaradorligini oshiruvchi muhim omillar — multimodal muhit, ochiq savollar, tajriba maydonchalari va o'yin asosidagi izlanish — aniqlab berildi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, IBL metodini ingliz tili mashg'ulotlariga tatbiq etish O'zbekiston MTTlarida ham yuqori natija beradi, biroq bu jarayon pedagoglarning metodni chuqur bilishi, dars uchun mos muhit yaratish va bolalarni mustaqil izlanishga yo'naltira olishi bilan bevosita bog'liq. Xitoy tajribasiga asoslanib aytish mumkinki, IBL metodining muvaffaqiyati o'quv muhitining boyligi, o'yin elementlarining ko'pligi va bolalarning faol ishtiroki bilan ta'minlanadi. Mahalliy sharoitda resurslarning cheklanganligi ayrim qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin, ammo moslashtirilgan amaliy yondashuvlar, tarbiyachilar uchun metodik treninglar va o'quv materiallarining boyitilishi IBLning samarali joriy etilishiga imkon yaratadi. Tadqiqot natijalari IBL metodining bolalarda tabiiy ravishda ingliz tilini o'zlashtirish, nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish va izlanish faoliyatini rivojlantirishda samarali ekanligini tasdiqladi.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Inquiry Based Learning (IBL) metodi MTTlarda ingliz tili o'qitish jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish imkonini beradi. Ushbu yondashuv bolalarni tayyor bilimni yod olishga emas, balki savol berish, kuzatish, tajriba o'tkazish va mustaqil xulosa chiqarish kabi faol bilish jarayonlariga yo'naltiradi. Natijada bolalarning nutq faolligi ortadi, ingliz tilidagi yangi so'z va iboralar tabiiy tarzda o'zlashtiriladi, kommunikativ kompetensiya shakllanadi. Xitoy maktabgacha ta'lim tizimida IBL metodining keng qo'llanilishi uning samaradorligini amaliy jihatdan tasdiqlab berdi. Multimodal o'quv muhiti, tajribaga asoslangan topshiriqlar, qiziqarli savollar va o'yinlar orqali izlanish tashkil etilishi metodning muvaffaqiyatida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qildi. Ushbu tajribani O'zbekiston sharoitiga moslashtirish ingliz tili o'qitishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, IBL metodini muvaffaqiyatli joriy etish uchun pedagoglarning metodik tayyorligi, bolalarning yosh xususiyatlariga moslashtirilgan o'quv muhitini yaratish, zamonaviy resurslardan foydalanish va izlanishga undovchi rag'bat tizimini yo'lga qo'yish zarur. Integrativ, amaliy va o'yin asosidagi yondashuvlar metodning samaradorligini yanada oshiradi. Umuman olganda, IBL metodi maktabgacha yoshdagi bolalarda nafaqat ingliz tili ko'nikmalarini, balki mustaqil fikrlash, muloqotga kirishish, ijodiy faoliyat va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiruvchi kuchli pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari ushbu metodni O'zbekiston MTTlarida keng joriy etish maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. *settings in China*. Journal of Language Teaching and Research, 11(4), 612–620.
2. Krajcik, J., & Shin, N. (2016). *Project-based and inquiry-based learning*. In R. Sawyer (Ed.), *The Cambridge handbook of the learning sciences* (pp. 275–297). Cambridge University Press.
3. Lightbown, P., & Spada, N. (2021). *How languages are learned* (5th ed.). Oxford University Press.
4. Chen, X., & Li, H. (2019). *Exploratory learning approaches in early childhood English education in China*. International Journal of Early Years Education, 27(2), 125–140.
5. Barrett, T. (2017). *Understanding the nature of inquiry-based learning in education*. Teaching in Higher Education, 22(9), 1048–1062.
6. Qodirova, M. (2020). *Maktabgacha ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llashning nazariy asoslari*. Maktabgacha ta'lim jurnali, 3(1), 55–62.
7. Jo'raeva, Sh. (2021). *Chet tillarini erta yoshdan o'qitishda interfaol metodlar samaradorligi*. UzAS National Journal of Pedagogy, 5(2), 112–118.
8. Tursunova, D. (2022). *Maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish metodlari*. Ta'lim va innovatsiya, 4(6), 77–83.
9. Xoliqov, A. (2019). *Maktabgacha ta'limda kreativ yondashuvlar va integratsiyalashgan o'qitish modellari*. Innovatsion ta'lim texnologiyalari jurnali, 2(3), 44–51.